



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- may holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya Vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024- yil 1- may holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 26 400 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 23 109 ta).

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- may holatiga ko‘ra, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 456 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2021- yilning mos davrida nisbatan yangi tashkil etilgan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar soni 416 taga, xususi korxonalar - 45 taga ko'paygan.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	319	6,1%	Xiva t.	153	8,4%
Shovot t.	215	12,1%	Gurlan t.	152	9,0%
Bog'ot t.	205	11,1%	Qo'shko'pir t.	130	6,1%
Urganch t.	199	7,0%	Xonqa t.	130	6,5%
Yangiariq t.	186	12,1%	Yangibozor t.	99	8,1%
Hazorasp t.	161	9,8%	Tuproqqal'a t.	58	7,8%
Xiva sh.	155	7,9%			

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2024- yil 1- may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan 6 275 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdoda – 5 491 tadan 9 107 taga (o'sish 3 616 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 979 tadan 2 595 taga (o'sish 616 ta), sanoatda – 3 272 tadan 3 849 taga (o'sish 577 ta).

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	5 199	Shovot t.	1 773
Urganch t.	2 845	Gurlan t.	1 686
Qo'shko'pir t.	2 133	Hazorasp t.	1 638
Xonqa t.	2 000	Yangiariq t.	1 542
Xiva sh.	1 955	Yangibozor t.	1 224
Bog'ot t.	1 848	Tuproqqal'a t.	745
Xiva t.	1 812		

2024- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida, yildan-yilga ularning investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 120 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirma va kichik korxonalar – 2 106 tani;
- yirik korxonalar - 14 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Urganch sh.	304	6,8%	Xiva t.	151	9,3%
Shovot t.	213	13,9%	Gurlan t.	151	10,3%
Bog'ot t.	202	12,4%	Xonqa t.	128	7,2%
Urganch t.	191	7,4%	Qo'shko'pir t.	128	6,7%
Yangiariq t.	185	13,5%	Yangibozor t.	97	9,2%
Hazorasp t.	160	11,3%	Tuproqqal'a t.	56	9,0%
Xiva sh.	154	8,6%			

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- may holatiga 23 249 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,3 foizni tashkil etdi (6 195 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 39,2 foiz, sanoat – 16,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 11,1 foiz, qurilish – 7,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,9 foiz, tashish va saqlash – 4,3 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,3 foiz, boshqa turlari – 11,0 foiz.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	4 500	Shovot t.	1 535
Urganch t.	2 568	Gurlan t.	1 465
Qo'shko'pir t.	1 903	Hazorasp t.	1 413
Xiva sh.	1 800	Yangiariq t.	1 366
Xonqa t.	1 777	Yangibozor t.	1 058
Bog'ot t.	1 627	Tuproqqal'a t.	622
Xiva t.	1 615		

2024- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2024- yil yanvar-aprel oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 615 tadan 721 taga (o'sish 106 taga), sanoatda 442 tadan 522 taga (o'sish 80 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 83 tadan 126 taga (o'sish 43 taga), qurilishda – 62 tadan 80 taga (o'sish 18 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	302	6,8%	Xiva t.	151	9,4%
Shovot t.	213	13,9%	Gurlan t.	150	10,3%
Bog'ot t.	201	12,4%	Qo'shko'pir t.	126	6,7%
Urganch t.	189	7,4%	Xonqa t.	126	7,1%
Yangiariq t.	185	13,6%	Yangibozor t.	97	9,2%
Hazorasp t.	158	11,2%	Tuproqqal'a t.	56	9,1%
Xiva sh.	152	8,5%			

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Urganch shahrida (19,2 foiz), Urganch tumani (11,0 foiz), Qo'shko'pir (8,2 foiz), Xiva shahri (7,8 foiz) va Xonqa (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	4 448	Shovot t.	1 530
Urganch t.	2 549	Gurlan t.	1 462
Qo'shko'pir t.	1 894	Hazorasp t.	1 406
Xiva sh.	1 793	Yangiariq t.	1 362
Xonqa t.	1 767	Yangibozor t.	1 054
Bog'ot t.	1 617	Tuproqqal'a t.	617
Xiva t.	1 610		




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Gurlan t.	377
Qo‘shko‘pir t.	304
Urganch t.	294
Xonqa	275
Xiva t.	229
Yangiariq t.	203
Bog‘ot t.	202
Shovot t.	168
Yangibozor t.	159
Tuproqqal‘a t.	126
Hazorasp t.	91
Urganch sh.	85
Xiva sh.	82



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	703
Urganch t.	421
Qo'shko'pir t.	368
Xonqa t.	350
Shovot t.	288
Xiva t.	285
Xiva sh.	263
Bog'ot t.	229
Gurlan t.	223
Hazorasp t.	218
Yangiariq t.	194
Yangibozor t.	164
Tuproqqal'a t.	143



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 117,6 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,6 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 97,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,4 foiz), 0,5 foizini tog-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati 105,6 foiz), 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (o'sish sur'ati 115,7 foiz) va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati 141,7 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	370
Xiva t.	212
Urganch t.	207
Qo'shko'pir t.	163
Xiva sh.	161
Xonqa t.	105
Yangiariq t.	96
Shovot t.	77
Hazorasp t.	67
Yangibozor t.	59
Gurlan t.	57
Bog'ot t.	56
Tuproqqal'a t.	36




Qurilish sohasining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,0 foizni;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,1 foizni;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 23,8 foiz ulushni va 90,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.


350

Fuqarolik  
obyektlarini qurish



396

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari




920

Bino va  
inshootlar qurish

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 670
Urganch t.	1 026
Bog'ot t.	806
Xiva sh.	693
Qo'shko'pir t.	683
Shovot t.	656
Hazorasp t.	644
Xonqa t.	584
Xiva t.	584
Yangiariq t.	583
Gurlan t.	519
Yangibozor t.	445
Tuproqqal'a t.	214



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 9 088 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,4 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 105,9 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishi 23,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 115,2 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishi 13,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 136,0 foizni tashkil etdi.

1 179

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 152

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 776

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	389
Xiva sh.	273
Urganch t.	165
Xonqa t.	108
Shovot t.	102
Gurlan t	91
Qo'shko'pir t.	81
Xiva t.	80
Bog'ot t.	79
Yangiariq t.	77
Yangibozor t.	73
Hazorasp t.	61
Tuproqal'a t.	44



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 125,7 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 14,4 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,6 foiz ulushini tashkil etdi.

233

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 390


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Urganch sh.	115
Xiva sh.	41
Xonqa t.	33
Urganch t.	33
Qo'shko'pir t.	31
Xiva t.	24
Yangiariq t.	22
Shovot t.	20
Bog'ot t.	16
Gurlan t.	15
Hazorasp t.	14
Yangibozor t.	10
Tuproqqal'a t.	5



2024- yil 1- may holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 24,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 126,4 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 29,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 82,2 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 46,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 109,9 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	209
Xiva sh.	50
Urganch t.	50
Xonqa t.	49
Gurlan t.	42
Hazorasp t.	37
Xiva t.	33
Shovot t.	33
Qo'shko'pir t.	32
Bog'ot t.	22
Yangibozor t.	21
Yangiariq t.	20
Tuproqqal'a t.	9



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi, ya'ni 532 tasi yoki 87,6 foiz ulushi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

- sog'liqni saqlash yo'nalishiga 94,7 foiz korxonalar to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,1 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 76,0 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 130,0 foizni tashkil etdi.

13

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

19




575

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	214
Hazorasp t.	163
Xonqa t.	118
Urganch t.	107
Bog'ot t.	68
Shovot t.	63
Qo'shko'pir t.	61
Xiva sh.	56
Xiva t.	48
Gurlan t.	47
Yangiariq t.	27
Yangibozor t.	18
Tuproqqal'a t.	16



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,8 foizni tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 102,3 foizni;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 90,0 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishi 125,0 foizni;
- havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 75,0 foizni tashkil etdi.





**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2024- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	214	Xiva t.	106
Hazorasp t.	139	Shovot t.	94
Gurlan t.	129	Qo'shko'pir t.	90
Urganch t.	128	Yangibozor t.	56
Bog'ot t.	123	Tuproqqal'a t.	51
Yangiariq t.	117	Xonqa t.	51
Xiva sh.	111		


2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 23 249 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 13 658 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich yashash va ovqatlanishda 127,3 foiz, savdoda 122,5 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 104,0 foiz, axborot va aloqada – 104,1 foiz, tashish va saqlashda – 102,8 foizni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	2 674	Bog'ot t.	940
Urganch t.	1 398	Yangiariq t.	913
Hazorasp t.	1 177	Xonqa t.	781
Gurlan t.	1 130	Shovot t.	703
Qo'shko'pir t.	1 032	Tuproqqal'a t.	533
Xiva sh.	1 025	Yangibozor t.	400
Xiva t.	952		


2024- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


## Hududlar kesimida

Shovot t.	83	Gurlan t.	10
Urganch sh.	54	Qo'shko'pir t.	6
Xonqa t.	50	Yangiariq t.	5
Bog'ot t.	29	Xiva t.	3
Yangibozor t.	22	Xiva sh.	3
Urganch t.	15	Hazorasp t.	2


2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2024- yil 1- may holatiga 4 556 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 42,5 foiz, sanoat – 17,6 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,8 foiz, qurilish – 7,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 4,1 foiz, tashish va saqlash – 2,3 foiz, axborot va aloqa – 1,6 foiz, boshqa turlari – 12,3 foiz.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	1 151	Bog'ot t.	244
Urganch t.	548	Xiva sh.	228
Xonqa t.	513	Xiva t.	212
Shovot t.	485	Hazorasp t.	82
Yangibozor t.	362	Yangiariq t.	82
Gurlan t.	316	Tuproqqal'a t.	28
Qo'shko'pir t.	305		


2024- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxon** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Yangiariq t.	63	Qo'shko'pir t.	32
Urganch t	48	Xonqa t.	25
Bog'ot t.	47	Yangibozor t.	19
Xiva t.	42	Hazorasp t.	19
Xiva sh.	40	Gurlan t.	12
Shovot t.	36	Tuproqqal'a t.	5
Urganch sh.	36		

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- may holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan 1 724 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi: savdoda – 858 tadan 1 912 taga (o'sish 1 054 taga), sanoatda – 801 tadan 1 166 taga (o'sish 365 taga), yashash va ovqatlanishda – 672 tadan 820 taga (o'sish 148 taga) korxonalar sonining o'sishi bilan izohlanadi.


## Hududlar kesimida

Urganch sh.	623	Yangiariq t.	358
Urganch t.	609	Shovot t.	330
Xiva sh.	532	Yangibozor t.	273
Xonqa t.	472	Hazoraspt.	142
Qo'shko'pir t.	448	Gurlan t.	101
Xiva t.	435	Tuproqqal'a t.	52
Bog'ot t.	429		

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 129 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Turkiya Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Xorazm viloyatiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 24,0), Turkmaniston (ulushi 17,1 foiz), Xitoy (ulushi 9,3 foiz) va Qirg'iziston Respublikasi (ulushi 3,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Urganch sh.	52	Bog'ot t.	5
Urganch t.	13	Yangibozor t.	5
Xiva t.	9	Qo'shko'pir t.	5
Xonqa t.	8	Hazorasp t.	4
Xiva sh.	7	Yangiariq t.	4
Gurlan t.	7	Shovot t.	4
Tuproqqal'a t.	6		



2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 64 tasi qo'shma korxonalar, 65 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda*

## chet el korxonalar

## qo'shma korxonalar

28	Urganch sh.	24
3	Xiva sh.	4
2	Bog'ot t.	3
3	Gurlan t.	4
3	Qo'shko'pir t.	2
9	Urganch t.	4
3	Hazorasp t.	1
3	Tuproqqal'a t.	3
4	Xonqa t.	4
2	Xiva t.	7
1	Shovot t.	3
2	Yangiariq t.	2
2	Yangibozor t.	3

2024- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- sentabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
boʻlimi

Tel.: (62) 22-4-65-11